XALQ DEPUTATLARI TERMIZ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-14-179-8-117-K/25 Termiz tumani

Termiz tumanining 2026 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025 yil 25 dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025 yil 26 dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025 yil 26 dekabrdagi 22-13-04/138-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025 yil 26 dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Termiz tuman budjetining 2026 yilgi daromadlari **93,2 mlrd.so‘m** va xarajatlari esa **93,2 mlrd.so‘m**ga ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Termiz tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **0,274 mlrd.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026 yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan

miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek Termiz tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026 yil uchun **1,1 mlrd.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi G’. Toshov, tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i bilan birgalikda 2026 yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi Dj.Taxchiyeva, hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **NAZAROV SOATMUROT ABDULLAYEVICH**

Xalq deputatlari Termiz tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-179-8-117-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**93 242 420,0**
1	Foyda soligi	*622 000*
2	Aylanmadan olinadigan soliq	*4 774 000*
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (Ijarasiz)	*42 985 000*
4	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijara berishdan	*310 000*
5	Qo'shilgan qiymat solig'i	*688 520*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	*6 455 000*
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	*7 006 000*
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	*14 960 000*
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	*11 639 000*
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	*2 217 600*
11	Davlat boji mahalliy	*456 000*
12	Jarimalar	*393 800*
13	Yigimlar mahalliy	*535 500*
14	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	*200 000*
15	Respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	*0*
	shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar	*0*

Xalq deputatlari Termiz tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-179-8-117-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Termiz tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Termiz tumani
	Xarajatlar miqdori, jami	**93 242 420**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*24 379 879*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*2 039 400*
2	Madaniyat bo‘limi	*2 899 997*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*2 515 301*
4	Sport bo‘limi	*5 292 350*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*0*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*2 285 778*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*2 039 191*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*0*
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*159 088*
10	Hokimiyat	*35 442 629*
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*2 222 713*
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 960 221*
	Madaniyat bo‘limi	*160 997*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*404 374*
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*177 927*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*373 359*
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*761 728*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*281 924*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*14 237 182*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 105 067*
	Zahira jamg‘armasi	*1 164 000*

11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*947 636*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*66 771*
	Axborot-kutubxona markazlari	*880 865*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	17 280 571
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Termiz tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-179-8-117-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
10	Termiz tumani	0%	10%	100%	90%	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%	0%	10%	100%	90%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%

№	Hududlar nomi	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Termiz tumani	0%	0%	100 %	100 %	0%	100 %	100 %	0%	0%	100 %	100 %	0%	0%	100 %	100 %	0%	0%	100 %	100 %	0%	0%	0%	0%	100 %	100 %

№	Hududlar nomi	Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar		Aylanmadan soliq		Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i		Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	
		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
1	Termiz tumani	15%	85%	5%	95%	50%	50%	100 %	0%	100 %	0%	100 %	0%	100 %	0%

Izox

1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950, 3 450 951 daromad kodi bo‘yicha) tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

3. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar (mol-mulkni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i (Termiz shahardan tashqari) bundan mustasno), soliqsiz tushumlar xamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Termiz tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-179-8-117-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Termiz tuman mahalliy budjetlarining 2026-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

T/R	Hudud nomi	Mahalliy budjetlarning jami daromadlar	shundan		Mahalliy budjet xarajatlari
			Mahalliy budjet daromadlari	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
JAMI		**93 242 420**	**93 242 420**	**0**	**93 242 420**
1	Termiz tumani	93 242 420	93 242 420	0	93 242 420

*tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni inobatga olgan holda

Xalq deputatlari Termiz tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-179-8-117-K/25 -son qaroriga
5-ilova

2026-yilda Termiz tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/R	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**274 478,0**
	shundan	
1	Termiz tuman	274 478,0